

## SAN'ATDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA MILLIY O'ZIGA XOSLIK MASALALARI

**Dovidxonov Mahmudxon Muhriddinxon o'g'li**

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

Toshkent viloyat bo'limi bosh mutaxassisi

### ANNOTATSIYA

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi va jahon hamjamiyati tomonidan mamlakatni mustaqil davlat sifatida tan olinishi, mamlakatning tashqi siyosatda mustaqil sub'ekt sifatida boshqa mustaqil davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy aloqalarni o'rnatish imkoniyatini taqdim etdi. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi madaniy-ma'rifiy sohalardagi xalqaro aloqalar jahon xalqlari madaniyati va san'atini yanada chuqurroq o'rganish, o'zbek xalqining umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun zamin hozirladi. Bugungi globallashgan dunyoda bizning an'anaviy qadriyatlarimizni demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, rivojlantirish jahon hamjamiyatiga qo'shilish imkonin beradi. Bunda avvalo milliy qadriyatlarni mutaassiblaridan, sof umuminsoniy qadriyatlarni soxtalaridan ajratib olish tadqiqotchilar oldida turgan ustuvor vazifadir. Mazkur maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro munosabatlarining falsafiy tahlillari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv jarayonlar, qadriyatlar, millat, siyosat, Davlat, san'at, madaniyat.

Dunyoda hukm surayotgan globallashuv jarayonlari butun insoniyat hayotini tubdan o'zgartirishda davom etmoqda. Bir tomondan bashariyatning moddiy va ma'naviy qadriyatlari bir-birini to'ldirib, boyitib, omuhtalashuv tendensiyalarini boshdan kechirayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'ladigan ehtimoliy hujum, zarba endilikda muayyan geografik-hududiy chegaralar bilan chegaralanib qolmaydi. Davlatlararo, jamiyatlararo o'zaro bog'liqlik kuchaygan sari dahldorlik va birdamlik ham mos ravishda ortib bormoqda.

Globallashuv jarayonlari xalqlarning san'atda, ijtimoiy-ma'naviy va madaniy hayotdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro munosabatlarini tiklanishi va rivojlanishiga ta'sir etib bormoqda. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning aloqadorligi masalalari bag'ishlangan ko'plab ilmiy asarlar ham yaratildi<sup>1</sup>. San'atda

<sup>1</sup> X.O.Мусаев. Умуминсоний қадриятлари муштараклиги. Мулоқот 1991, №8, 25 б. А.Кудинов. Умуминсоний ва

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni namoyon bo'lish xususiyatlarini tadqiq etish san'atshunoslar uchun ham nazariy ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli xalqlarning milliy san'ati bir-biridan qanchalik farq qilmasin, ular san'at taraqqiyotining asosiy mazmunini o'zaro aloqadorlik va ta'sir, an'anaviylik va yangilanish, eskisini inkor qilish va yangi namunalarni yaratish kabi murakkab jarayonlarni tashkil qiladi.

Muayyan xalqlarining milliy san'ati boshqa xalqlar san'ati bilan o'zaro ta'sirlashuv natijasida g'oyaviy-badiiy yo'nalishlarni yangilarini o'zlashtirsada, bu jarayonlarda o'zining tarixiy an'anaviylik va konstruktiv yangiligini saqlab qoladi. Biroq, aksariyat san'atshunoslar milliy san'atning o'zaro ta'sirlashuvida garmonik buzilish yuzaga kelib san'atda regress tendensiyasini keltirib chiqarishi mumkin, degan fikrda sobitlar.

Madaniyatshunos S.Moravskiy o'zining "Asrlar almashinuvida madaniyat obrazi" deb nomlangan maqolasida boshqa xalqlarning milliy san'atining o'zlashtirishi, transformatsiyaga uchrashi yangi tarix davridan boshlanadi<sup>1</sup>, deya globallashuv davriga ishora qiladi. Bizningcha, Moravskiy bu o'rinda san'atdagi integratsiya va transformatsiya jarayoni qadimiy tarixiga egaligi, uning hozirgi bosqichi sifat jihatidan avvalgilaridan farq qilishi inobatga olinmagan.

San'atda umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini ochib berishdan avval, san'atdagi milliy o'ziga xosligi masalasidan boshlamoq lozim. Muayyan davrda yashagan san'atkor, ijodkorlarni bir avlod deb hisoblasak, undan keyin keladigan yangi avlod o'zi ijod qiladigan san'at turi negizini yangidan yaratmaydi, balki o'tmish avlodlardan qolgan ijodiy merosga tayanadi.

Yunus Rajabiy, Kamoliddin Rahimov maktabi, degan tushunchalarning milliy san'atimizda paydo bo'lishi ham bejiz emas. Bu o'rinda maktab so'zi "yo'nalish", "uslub"ni anglatadi. Boshqacharoq qilib aytganda, havaskordan professionalgacha bo'lgan bosqichda ijodkor muayyan "maktab"ni o'zlashtiradi, shuningdek, umumiy qonuniyatlardan chiqmagan holda o'ziga xoslikni yarata olsa bu ijodkor o'z maktabini yaratuvchisi hisoblanadi. ba'zi san'at turlari, misol uchun raqs san'atidagi mavjud maktablar/yo'nalishlar geografik-hududiy nom bilan ataladi. Masalan, Farg'ona-Toshkent, Buxoro, Xorazm, Surxon, Qoraqalpoq raqs maktablari. Bu o'zbek san'atining boshqa xalqlar san'atida uchramaydigan milliy o'ziga xos jihatidir.

Ijodiy faoliyatda voqea-hodisalarni badiiy tasvirlashda milliy an'analarni haddan ziyod bo'rttirib yuborish natijasida "milliy egoizm" yoki aksi bo'lgan niglizm xavfi

---

синфий манфаатлар диалектикаси тўғрисида. Инсон ва сиёсат, 1991, № 12, 8 б. Б.Л.Оронюк. Қардошларча ҳамкорлик кудрати. – Т.: Ўзбекистон, 1985. 61 б.

<sup>1</sup> Моравский С. Образ культуры на переломе веков. В.сб. «В диапазоне гуманитарного знания». Выпуск 4, СПб, 2001, 2 б.

yuzaga kelishi mumkin<sup>1</sup>. Shunday bo'lsada yaratilayotgan badiiy qadriyatlarda vorisiylik munosabatlarini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatning globallashuvi haqida aniq tasavvurlar, tasniflar mavjud. San'atning globallashuvida san'atkor ijodiy jarayonlari orqali bevosita o'zi ishtirok etadi. Yaratilayotgan badiiy qadriyatlar yaratishda ijodkor boshqa xalqlar hayoti, obrazlari, syujetlari, og'zaki ijodiga murojaat qiladi. Masalan, rejissiyor Zulfiqor Musoqovning "Oyijon" filmi olib ko'raylik. Unda ikki xalqning milliy o'ziga xosliklari orasidagi umumiy mushtarakliklar hamda umuminsoniy qadriyatlarning bir nechta ko'rinishlari mohirona ifoda etilganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbek san'atidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zaro munosabatlari, umumiy va ziddiyatli tomonlarini tarixiy nuqtai nazardan falsafiy tahlil qilish orqali uning istiqbolini belgilashga erishish mumkin.

Yaqin o'tmishimizda kommunist ideologlar va siyosatchilar nafaqat san'atda balki odamlarning ijtimoiy hayotdagi mohiyatini, milliy o'zligini anglash tuyg'usini millatchilik deb baholar edilar. Ruslashtirish, rus madaniyati milliylikni tub aholimizga baynalminal qadriyatlar, baynalminalchilik, deya singdirishga urinilgan. Milliy o'zini anglash uchun qilingan har qanday ijtimoiy, ijodiy harakat qattiq qarshilikka uchrar, uning tashabbuskori bo'lgan ijodkor ahliga nisbatan "qatag'on siyosati" qo'llanilar edi.

Imperialistik manfaatlarga mos tushuvchi "ko'p millatli" birlikni shakllantirish bo'lgan intilish ortidan milliy qadriyatlarni saqlab qolishga bo'lgan tabiiy intilish jamiyat va davlat o'rtasida murosasiz qarama-qarshilikka olib keldi. Bu esa amalda sovet hokimiyatini yemirilishi va qulashi bilan yakun topishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov aytganidek: "Har qanday millat u naqadar kichik bo'lmasin – insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi, Yer yuzidagi madaniy va genetik fondning shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi<sup>2</sup>".

San'at xalqlar va milliy san'atlar rivoji bilan ikki yo'nalishda aloqada bo'ladi. Birinchi yo'nalishda yagi ma'naviy-badiiy tajribani ijodiy o'zlashtirish barobarida o'ziga xos ishlab chiqaruvchi, ikkinchi tomondan ishlab chiqaruvchilarga nisbatan "iste'mol qiluvchi" hamdir.

"Gegel, Gerder, Gyote nazariyalarida jahon san'ati taraqqiyoti xalqlar va millatlar badiiy salohiyatlari yuzagi chiqishi orqali kechadi. San'at ular uchun muayyan xalq, millat o'zining tarixiy shakllangan ijtimoiy-siyosiy funksiyasini bosqichma-bosqich

<sup>1</sup> Ш.С.Агзамходжаева. Ўзбекистоннинг маънавий янгиланишида бадий маданиятнинг ўрни. –Тошкент: Дис,392/2005. 95 б.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. –Тошкент: Ўзбекистон, 80 б.

to'ldirishga intiladigan ma'lum usul, vositadir. Boshqa xalqlarga ta'sir ko'rsatadigan san'at taraqqiyotining umumiyligi Gyoteda bu – umuminsoniy, Gerderda – insoniylik, Gegella – dunyoviy ruh orqali namoyon bo'ladi<sup>1</sup>".

San'atdagi milliy omil san'atda tarixiy tendensiyalarni o'rni va roli, ularning xalqqa transformatsiya qilish xususiyatlari hamda xossalari, funksiyalari ijtimoiy amaliyot va milliy hayotning qaysi sohalarida namoyon bo'lishi bilan bog'liq holda belgilanadi. Ya'ni, ijodiy faoliyatning samarasi bo'lgan san'at namunasi u yoki bu tarixiy voqelikni ifoda etishi lozim. Har bir haqiqiy san'at asari asosida doimo ahloqiy muammo yotadi<sup>2</sup>.

San'atda milliy koloritlarda umuminsoniy xususiyatla mavjud. Shu ma'noda xalqimiz tomonidan jahon xalqlari milliy san'ati yutuqlarini o'zlashtirib, ma'naviy madaniyatimizni yanada rivojlantirish imkoniyatlari kengaydi. Bu tendensiya ayniqsa so'nggi besh yillikda yanada ko'zga tashlandi. Dastlab Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti Yunesko tomonidan 2001 yil 18 mayda dunyoning 19 ta nuqtasi/joyi insoniyat xalqlarining qadimiy ma'naviy-madaniy markazlari bo'lgan, deya e'tirof qilingan. 2001 yil mart oyidagi Yunesko qaroriga ko'ra Surxondaryo viloyati Boysun tumani "insoniyat og'zaki va nomoddiy merosi durdonasi" sifatida e'tirof etilib, 2008 yil Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentiv ro'yhatiga kiritilgan. 2002 yil 23-27 may kunlari "Boysun bahori" deb nomlangan xalqaro ochiq festivali bo'lib o'tgan. Bu o'zbek xalqining milliy madaniyati va san'atining integratsion jarayonlarga kirishishi tomon ilk tashabbuslardan biri bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoev davriga kelib, milliy madaniyat va san'atga bo'lgan e'tibor yangi bosqichga kirdi. San'atdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar rivojlanishi, taraqqiy topishi uchun jahon hamjamiyati bilan doimiy muloqot yo'lga qo'yilishini yaxshi anglagan prezidentimiz davlatning madaniyat siyosatida tub burilish yasadi. Xususan, 2018 yil ilk bor Qashqadaryoning Qarshi shahrida Xalqaro "Maqom san'at" festivalini, 2019 yil Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida Xalqaro "Baxshichilik san'at" festivalini o'tkazilishi, shuningdek, bu festivallar har ikki yilda bir marta o'tkazilishi prezident qarori bilan belgilab qo'yilishi, o'zbek san'atining jahon afkor ommasiga to'laqonli yetkazib berishni, milliy madaniyatimiz va san'atimizdagi milliy o'ziga xoslikni namoyon etish va eng asosiysi global dunyoda madaniy turfa xillikni saqlab qolishga qaratilgan muhim siyosiy qadamdir. Shuningdek, O'zbekiston tashkil qilingan mazkur tadbirlar –

<sup>1</sup> Гарнус В. Гегель о народном духе и обществе: Борьба идей в эстетике. -Москва. 1966. 100-160 б.

<sup>2</sup> Абдулла Шер. Эстетика. –Тошкент: Ўзбекистон, 2015.. 206 б

xalqaro festivallar orqali birinchilardan bo‘lib madaniyat va san‘at diplomatiyasini shakllantirishga erishganligi bilan tarixda qolajak.

Madaniyat va san‘at diplomatiyasi madaniyat va san‘at sohasidagi aloqalarni ko‘p tomonli kengaytirib, ma‘naviy-madaniy qadriyatlarni munosib baholash imkonini beradi. Ana shu aloqalar hisobiga tomonlarning milliy madaniyat va san‘at an‘analari rivojlanadi, sayqal topadi. Madaniyatshunos olim K.B.Sokolov yozganidek: “Milliy madaniyatlarning o‘zaro aloqalari estetik ehtiyojlarni samarali rivojlanishiga, turli xalqlarning milliy ta‘bini shakllantirib, badiiy didini oshishiga xizmat qiladi<sup>1</sup>”

Keltirib o‘tilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, ijodiy faoliyatda tarix va hozirgi zamon real voqeliklariga murojaat qilish, xalqning, ayniqsa, yosh avlodning tafakkurida hayotni idrok etish, mavhum va mutaasib qoliplarni yengib o‘tib, atrofdagi voqea-hodisalarga to‘g‘ri baho berish ko‘nikmasini shakllantiradi;

Ikkinchidan, milliy o‘zlikni anglash yangi avlod ijodiy ziyolilarini kashf qiladi. Yangi avlod esa eski aqidalardan voz kechadi, tarixiy o‘tmishimizni saqlab qoladi.

Uchinchidan, milliy tafakkur taraqqiyotida madaniy turfaxillikka umuminsoniylik nuqtai nazaridan yondashib, boshqa xalqlar taqdiri, ularning o‘zaro munosabatlari bilan yaqindan qiziqishi, ularning badiiy qadriyatlarining teran nuqtalarigacha kirib borishi va bunda milliy manfaatlarni hisobga olishi kerak.

To‘rtinchidan, millatimizning kelajagi, ertasi millat vakillarining ma‘naviy qudrati, milliy ongining ijodiy kuchiga, va albatta, umuminsoniy qadriyatlarning qay darajada o‘zlashtirishi/maqbullashtirishiga bog‘liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moddiy farovonlikka bo‘lgan intilish millatning ma‘naviy, aqliy kamol topishida to‘sqinlik qilib qo‘ymasligi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. X.O.Musaev. Umuminsoniy qadriyatlari mushtarakligi. Muloqot 1991, №8, 25 b. 12, 8 b.
2. A.Kudinov. Umuminsoniy va sinfiy manfaatlar dialektikasi to‘g‘risida. Inson va siyosat, 1991, №
3. Б.Л.Оронюк. Қардошларча ҳамкорлик қудрати. – Т.: Ўзбекистон, 1985. 61 б.
4. Моравский С. Образ культуры на переломе веков. В.сб. «В диапазоне гуманитарного знания». Выпуск 4, СПб, 2001, 2 б.

<sup>1</sup> Соколов К.Б. Социальная эффективность художественной культуры. –Москва: «Наука», 1990. 118 б.

5. Sh.S.Agzamxodjaeva. O‘zbekistonning ma’naviy yangilanishida badiiy madaniyatning o‘rni. –Toshkent: Dis,392/2005. 95 b.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.6. – Toshkent: O‘zbekiston, 80 b.
7. Гарнус В. Гегель о народном духе и обществе: Борба идей в эстетике. -Москва. 1966. 100-160 б.
8. Abdulla Sher. Estetika. –Toshkent: O‘zbekiston, 2015.. 206 b.
9. Соколов К.Б. Социальная эффективность художественной культуры. –Москва: «Наука», 1990. 118 б.